

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.D.Baxronov</b>	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'rni.....	201
<b>H.S.Ergashev</b>	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi .....	207
<b>I.T.Boltaboyev</b>	
Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'rni.....	212
<b>Sh.O'.Ahrorova</b>	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni.....	216
<b>U.X.Kolmatov</b>	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari.....	220
<b>F.B.Rahmonova</b>	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili .....	225
<b>J.Saburov</b>	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri ....	230
<b>B.A.Pulatov</b>	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari .....	236
<b>S.S.Evaton</b>	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
<b>A.Sh.Raximov</b>	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi .....	245
SIYOSAT	
<b>Sh.Ismoilov</b>	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'naliш .....	249
<b>D.Sh.Mahkamov</b>	
Hakamlik sudi va davlat sndlari o'rtasidagi farqlar .....	252
<b>R.Nurimbetov</b>	
Shanaxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari .....	255
<b>B.X.Allamurodov</b>	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan) .....	258
<b>M.B.Nabiев</b>	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
<b>N.Madumarova</b>	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida .....	269
<b>A.A.Buriyev</b>	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'rni va bu boradagi xorijiy tajriba .....	273
<b>D.Mamadjonova</b>	
Siyosiy partiyaning faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari .....	277
<b>A.A.Ahrorqulov</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
TARIX	
<b>Бурхониддин Чалодиддин</b>	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
<b>M.T.Musaev</b>	
Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi .....	292
<b>R.A.Arslonzoda</b>	
Отражение литературной жизни Бухары в "воспоминаниях" Садриддина Айни .....	297



UO'K: 101.1

**YANGI O'ZBEKİSTONNING MA'NAVİY YUKSALISH JARAYONIDA YOSHLAR  
VATANPARVARLIGI FENOMENİNİ İJTİMOİY-FALSAFIY TAVSIFI**

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ОПИСАНИЕ ФЕНОМЕНА МОЛОДЕЖНОГО ПАТРИОТИЗМА  
В ПРОЦЕССЕ ДУХОВНОГО РОСТА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**SOCIAL-PHILOSOPHICAL DESCRIPTION OF THE PHENOMENON OF YOUTH PATRIOTISM IN  
THE PROCESS OF SPIRITUAL GROWTH OF NEW UZBEKISTAN**

Raximov Alisher Sharofidinovich

Farg'onan davlat universiteti mustaqil tадqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada Yangi O'zbekistonning ma'nnaviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, Yangi O'zbekistonning ma'nnaviy yuksalish jarayonida yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalashning istiqboldagi ustuvor vazifalar o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonning ma'nnaviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy masalalari tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В статье рассмотрены теоретико-методологические основы социально-философского исследования феномена молодежного патриотизма в процессе духовного роста Нового Узбекистана, приоритетные задачи воспитания патриотизма у молодежи в процессе духовного роста Нового Узбекистана. изучаются. Также анализируется необходимость изучения процессов духовного роста Нового Узбекистана и факторов, которые его развивают.*

**Abstract**

*In the article, the theoretical and methodological foundations of the socio-philosophical research of the phenomenon of youth patriotism in the process of spiritual growth of New Uzbekistan, the priority tasks of education of patriotism in young people in the process of spiritual growth of New Uzbekistan are studied. Also, the need to study the processes of spiritual growth of New Uzbekistan and the factors that develop it is analyzed.*

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, ijtimoiy-falsafiy, fenomen, ma'nnaviy yuksalish, vatanparvarlik, jadid, tarixiy-falsafiy asos, obyekтивlik, tarixiylik, tizimlilik, analiz, sintez, induksiya-deduksiya.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, научно-методологическая основа, социально-философский, феномен, духовный рост, патриотизм, современность, историко-философская основа, объективность, историчность, системность, анализ, синтез, индукция-дедукция.

**Key words:** New Uzbekistan, scientific-methodological basis, socio-philosophical, phenomenon, spiritual growth, patriotism, modernity, historical-philosophical basis, objectivity, historicity, systematicity, analysis, synthesis, induction-deduction.

**KIRISH**

Yangi O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlarda har tomonlama yetuk barkamol avlodni shakllantirish va tarbiyalash muhim ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Aynan, bugungi kunda mamlakatimizda ta'lím-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida xalqni mana shunday ezgu g'oyalar sari dadil odimlayotganligini teran anglash mumkin. Ayniqsa, "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida O'zbekiston taraqqiyotining yangi davriga kirib kelgani, jamiyatda olib borilayotgan keng ko'lamlili ijtimoiy-iqtisodiy va ma'nnaviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar eng, avvalo, yurtimiz taraqqiyotiga zamin yaratib, umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR**

O'zbekistonda ma'nnaviy yuksalish jarayonlari "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" tamoyilli asosida ilgari surilgan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asar, nutq, maqola va selektr yig'ilishlaridagi konseptual g'oyalar, shuningdek, Sharq va G'arb falsafiy merosi mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ma'nnaviy yuksalish jarayonlarini ahamiyatini yoritib berish bilan bog'liq muammolarini muayyan darajada o'z ichiga olgan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. S.Shermuhammedov, A.Saidov, B.To'raev, J.Yaxshilikov, N.Jo'rayev, Q.Nazarov, S.Otamurodov, S.Karimov, A.Xolbekov, R.Jumayev, B.Karimov, T.Jo'rayev, I.Ergashev, S.Jo'rayev, M.Qirg'izboyev, A.Erkayev, M.Bekmurodov, V.Qo'chqorov, M.Jakbarov, A.Muminov singari olimlarimiz jamiyatda ijtimoiy sohani rivojlantirish yuzasidan turli izlanishlar olib borishgan. R.Ubaydullayeva, X.Abdusattorova kabi olimlar ijtimoiy rivojlanishning yangi davrida innovatsion omilning ahamiyati borasida tadqiqotlarni amalga oshirgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'z-o'zini anglash — bu xalqning millatning o'tmisht tarixiy taraqqiyot yo'lini, ota-bobolari, nasl-nasabi, avlodu—ajdodlarining kim bo'lganligi va ularning jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini bilib olishdir. Shuni anglash zarurki, "millati, tili va dinidan qat'i nazar, O'zbekistonni o'zining Vatani deb biladigan, uning ravnaqi uchun hissa qo'shib kelayotgan har bir fuqaro bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e'tibori va ardog'ida bo'ladi. Millatlararo do'stlik, diniy konfessiyalar o'rtaсидagi hamjihatlik, ijtimoiy bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz. Butun dunyoda kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik kabi xatarlar, afsuski, bizni ham chetlab o'tmayapti. Lekin takror aytaman, musulmon ummatiga saboq bergan Imom Buxoriy, Imom Termizi, Imom Moturidiy kabi buyuk ulamolar yetishib chiqqan bizning diyorimizda bu borada adashganlar, radikalizm va ekstremizm g'oyalariga berilganlar bo'lishi mumkinmi?".

Milliy o'zlikni anglash — millat yashayotgan Vatanning porloq istiqbolini ta'minlash uchun qanday imkoniyatlar va qulayliklarga ega ekanligini chuqr anglab yetish, ular bilan cheksiz faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, real vogelikka aylantirish uchun o'zini safarbar etish, barcha imkoniyatlari, kuch g'ayratini ishga solish demakdir. Millat mavjud bo'lishi uchun til, hudud va ma'nnaviyat asosiy shart bo'lgani kabi milliy o'zlikni anglash ham asosiy zaruriy shart hisoblanadi. O'zlikni anglash o'z mohiyatiga ko'ra millat va elatlar uchun xos bo'lgan ma'nnaviyat xususiyatlarini ifoda etib, o'z funksiyasiga ko'ra milliy manfaatlarni himoya qiladi. Shunday qilib, har millat va elatning o'zini real mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma'nnaviy boyliklarini ifodalovchi etnik birlik, til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarga mansubligini, manfaatlar va ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishga milliy o'zlikni anglash, — deb ataladi. Milliy o'zlikni anglash millat birligining mustahkamligini, millat manfaatlarining, shaxs, mahalliychilik manfaatlaridan ustun turishini anglash darajasi bilan bog'liqdir. Milliy o'zlikni anglash real hayotda millat sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori poymol etilganda yoki millatning manfaatlariga nisbatan ikkinchi bir tomonidan zo'ravonlik harakatlari boshlanib ketgan holatlarda yanada kuchli va yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday holatda, millatning barcha vakillari qaysi lavozimda xizmat qilishi, qaysi darajada boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar o'zaro birlashib ketadilar va millatning manfaatlarini himoya qiladilar.

Milliy o'zlikni anglash omilining qudrati quyidagi sharoitlarda ko'proq namoyon bo'ladi:

Birinchidan, agar milliy o'zlikni anglash rivojlangan bo'lsa, yuqorida qayd etganimizdek, millatning manfaatlariga, ayniqsa, sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori, g'ururi poymol etilishiga qaratilgan harakatlar yuzaga kelgan sharoitlarda, millatning barcha vakillari birlashib ketadilar, hatto millatning ichida o'zaro muxolifatda bo'lgan tomonlar ham millatning sha'ni, g'ururi, obro'-e'tiborini himoya qilish manfaati yo'lida birlashadilar.

Ikkinchidan, milliy o'zlikni anglash ruhiy, his-hayajon, ehtiros omilidir. Mazkur holat tashqaridan qaraganda sezilmaydi. Uni millatning xatti-harakatlarida, intilishlarida va maqsadlarini amalga oshirishlaridagi salohiyati orqali bilib olish mumkin bo'ladi. Ruhiy his-hayajon va ehtiroslarning „portlashi“ millatning xarakteri, xususiyatlari, milliy g'oyalarni yaratuvchi, uning taraqqiyotida oldingi safda turuvchi ziyolilarning salohiyatiga bog'liq.

Uchinchidan, milliy o'zlikni anglash omili faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki milliy taraqqiyot jarayonida, uning oldida yuzaga keladigan ichki muammolarni hal qilish hamda millatni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi vazifani ham bajaradi. Bu muammolar mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda sodir bo'lishi mumkin.

To'rtinchidan, milliy o'zlikni anglash millatning muhim belgisi sifatida, faqat uning manfaatlarini ifodalab yoki himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki shular bilan birga uning abadiyligini ta'minlab turuvchi mustahkam qo'rg'on hamdir.

O'zlikni anglash g'oyasi uzoq tarixiy ildizga ega bo'lib, uni biz qadimgi yunon

## FALSAFA

donishmandlarining ma'naviy merosidan ham bilishimiz mumkin. Masalan, faylasuf Suqrotning fikricha, o'zini anglagan inson o'zi uchun nima foydali va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo'lidan keladigan ish bilan shug'ullanish asnosida o'z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizliklardan holi bo'ladi. Buning natijasi o'laroq, u o'zga odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo'lida foydalana biladi. Oqibatda o'zini kulfatlardan asraydi. Bu qarash milliy yuksalishda obyektiv va subyektiv ehtiyojning muhim omili hisoblangan o'zlikni anglash ekanligini anglatadi. Bu esa, tasavvuf ta'limotidagi qanoat va sahovat, himmat va botiniy faqrlik bilan inson o'zining ulug'ligini eng katta dushmani nafs ekanligini ham anglatadi.

Taraqqiyotning yangi bosqichida mamlakatning tarixiy rivojlanish jarayoni xalqimizning ma'naviy boyligini saqlab, to'plab avlodlarga yetkazib kelgani, xalqimizda birdamlik, vatanparvarlik va milliy g'urur hissini tarbiyalaganini e'tirof etgan holda, madaniyatning ustuvorligiga urg'u berish, jamiyat hayoti sifatining yanada yuqori darajasini ta'minlash, unda fuqarolarning hamjihat bo'lishiga erishish, ma'naviyatlari, mas'uliyatlari, mustaqil fikrlovchi ijodkor shaxsni shakllantirish asosiy mazmunini tashkil etadi. Jamiyat va davlat farovonligi barkamol avlodni voyaga yetkazish bilan kafolatlanadi. Jamiyat ichidan yetishib chiqadigan yetuk, barkamol shaxslar milliy yuksalishning poydevorini qo'yadi. Bu esa, axloqiy-ma'naviy ta'lim-tarbiya jarayonida kamolga erishgan shaxsdir. Shu o'rinda nemis faylasufi logann Fixte o'zlikni anglash milliy yuksalishga asos ekanligini quyidagicha ifodalaydi, «O'z-o'zingni idrok et, atrofingni o'rab turgan hamma narsadan nigohingni o'z va botiningga boq». Demak, milliy yuksalishni amalga oshirishning obyektiv va subyektiv omillarining o'ziga xosligi ta'lim-tarbiya jarayoni bosqichlariga bog'liqdir. Milliy yuksalishni anglab yetishda o'z iqtidori, iste'dodi, o'z salohiyati va qobiliyatini anglashi, o'z haq-huquqini bilish bilan o'z zamondoshlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Bilim va boylikka ega bo'lish odamning sa'y-harakatiga bog'liq, odam qancha ko'p g'ayrat qilsa, shuncha bilimi va mol-mulki ortib borishini kuzatamiz. Insonning kamolga erishishi hamda axloqqa ega bo'lishi va o'z-o'zini tanish bilan amalga oshadi. Har bir millatning voyaga yetgan ongli a'zosi o'zi mansub bo'lgan millatning oldida ma'suliyatlari bo'ladi. Millatning miqdoriy, iqtisodiy, madaniy, axloqiy, ma'rifiy, ma'naviy taraqqiy etib borishi, yer yuzidagi boshqa xalqlardan orqada qolib ketmaslik uchun birinchi navbatda shu xalqqa mansub kishilar javobgarlik tuyg'usini tuyishi lozim. Oila va jamiyatdagi har bir harakatida, bosgan har bir qadamida shu millatning manfaatlarini g'am unutmasligi kerak. Jamiyat taraqqiyoti ta'lim-tarbiyaning rivoji bilan uyg'un holda insonparvarlik g'oyalarini aks ettiruvchi shaxs hayot va faoliyatida o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini ifodalay olish, o'z-o'zini kamol toptirish, o'z-o'zini kashf qilish imkoniyatlariiga ega bo'lishi kerakligini bildiradi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya bilan hamoxang shaxsnинг kamoloti negizi sifatida oila, maktab, ijtimoiy muhit, ishlab chiqarish o'z mavqeini saqlab qolaveradi.

Ma'naviy yuksalishda bag'rikenglik, avvalo turli ijtimoiy guruuhlar, tabaqalar, sinflar o'rtasida hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo murosasi va umummilliyl Taraqqiyot yo'lida jipslashish tamoyillariga tayanib individual – shaxsiy, jamoaviy-guruhiy va milliy-umuminsoniy manfaatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Buning asosiy sharti, axloqiy va huquqiy tamoyili – har qanday ijtimoiy-siyosiy subyektlarning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy, ma'rifiy manfaatlariga, sog'lom ehtiyojlarini o'sishiga va ularni qondirishga ziyon yetkazmaslikdir.

Bag'rikenglik pluralistik xarakterga ega bo'lib, dunyoviylikka, diniy bag'rikenglikka, ratsionalizmga asoslanadi. Ya'ni umumiyl maqsad yo'lida barcha dinlar o'rtasida muloqotni, turli konfessiyalarning, din vakillarining umummilliyl manfaatlariga ko'ra, o'zaro hamkorlik qilishini do'stona munosabatlar o'rnatishini rag'batlantiruvchi omildir. Shu sabablihar qanday ijtimoiy holatdagi yuksalish jamiyatni o'zaro ta'sir qiluvchi tomonlari bo'lib, ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning obyektiv va subyektiv omillari hisoblanadi. O'zbekiston o'z taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida ochiq, o'zaro hurmat, tenglik va manfaatdorlik, yaxshi qo'shnichilik tamoyillariga asoslangan tashqi siyosat olib bormoqda. Ijtimoiy jarayonlarda jamiyatni milliy yuksalish muammosini yana bir muhim jihatni ilmiy-falsafiy tadqiq etish zaruriyati masalasidir. Birinchidan, shaxs, ya'ni subyekt, obyektiv bog'liqning passiv kuzatuvchisi emas, aksincha, ongli va faol o'zgartuvchisi sifatida namoyon bo'lishi muhim hisoblanadi. Jamiyatda har qanday faoliyatining usuli va obyektiv-sabab yo'nalishini tashlash va belgilash shaxsga, subyektga bog'liq bo'ladi. Bu esa, ayni vaqda jamiyat rivojlangan sari islohotlar rivojida subyektiv omilning ahamiyatini oshiradi. Chunki obyektiv omillarning rivojlanib borishi, subyektning erkin yaratuvchanlik faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Xalqimiz bosib o'tgan tarixiy yo'lda shakllangan milliy va diniy qadriyatlarga nisbatan jamiyatimiz a'zolarida hurmat va e'tiqod tuyg'ularini kamol toptirish maqsadida milliy-ma'naviy va diniy-ruhiy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganish hamda tahlil etish va ularning shaxs dunyoqarashiga ta'siri darajasini ko'rsatish zarur. Milliy qadriyatlar kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadi. Rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo'ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o'ziga xos tarzda ta'sir qiladi, deyiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni kishilarning o'zaro munosabatlarda, ijtimoiy faoliyatlarida ko'zga tashlanib turishidan hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asosdan bilib olsa bo'ladi.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ularning aloqadorligi ifodasi bo'lgan qadriyatlar tizimi, millatimizning tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllanib keldi. Milliy qadriyatlarimiz millatning kelib chiqish xususiyatlari va hududiy makoni bilan bog'liq holda shakllandi. Qardosh xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-hududiy qadriyatlar ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etdi. Shu tariqa millatimiz o'ziga xos rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning cirralarini rivojlantirib bordi.

Milliy qadriyatlar tabiatiga ko'ra, tor doirada to'xtab qolmaydi, balki ravnaq topib, turmush jarayonida yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan boyib boradi. Ayonki, har bir el, elat, urug' yoki xalqning urf-odatlarida o'ziga xoslik bo'ladi. O'ziga xos qadriyatlarni boshqa joyda, boshqacha tarzda yashayotgan kishilarning tarozisi bilan o'lhash yoki bu masalada boshqalarning hakam bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Umuminsoniylik tuyg'usi faqat o'z xalqi qadriyatini ardoqlash, ko'z-ko'z qilish va boshqalar orasiga yoyish uchun intilishga asoslanmaydi, balki har bir xalq, elat, urug' qadriyatlarini qanday holatda bo'lsa, shundayligicha qabul qilib, ularni hurmat qilishdan boshlanadi.

Odamning komil inson va mukarram inson martabasiga ko'tarilishi uning ma'naviyatining yuksalishi demakdir. Shu o'rinda aytish kerakki, bu sohada olib borilayotgan nazariy va amaliy izlanishlarni chuqur o'rganish, uni amaliyatda qo'llash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Yoshlarni milliy yuksalish ruhida tarbiyalash hamda kamol toptirishda sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitning samaradorligini yanada oshirishda murabbiylar va targ'ibotchilarning vazifalarini, tavsiyalar ularning ish hujjatlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda e'tibor berish lozim bo'lgan jihatlar o'z aksini topgan.

## XULOSA

Xulosa qilib, ijtimoiy munosabatlarni yaratuvchi shaxslarning faoliyati to'g'ri maqsadga yo'naltirilgan hamda unga yetishning aniq va ravshan vositalari, usullariga ega bo'linganda tarixiy taraqqiyot, ya'ni milliy-ma'naviy yuksalish vujudga keladi. Bu borada ilgari surilgan vazifalar va ularning bajarilish yo'llari, usullari, vositalari juda puxta, izchil, aniq va ilmiy-amaliy jihatdan ravshan tarzda bayon etilishi lozim.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

7. Мирзиёев Ш.М. Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон. 2018. – Б 252.
8. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. Тошкент: Ўзбекистон. 2020. - Б 249
9. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021.
10. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-Toshkent.: O'qituvchi, 1992. -B. 33-38
11. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. -Toshkent.: Ma'naviyat, 2002.-B.49
12. Maxmudov T. Avesto haqida.-Toshkent.: Sharq, 2000: -B. 117.
13. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. -Toshkent.: O'qituvchi, 2004. –B. 8.
14. Абрамова Г.С. Психология только для студентов: Учебное пособие для вузов. – Москва: ПЕР СЭ, 2001. – С.168
9. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳи луғати. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – Б.333.
10. Маматов Х.Т. Ҳуқуқий маданият ва Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг шаклланиш муаммолари. Тошкент. 2009. –Б. 202.
11. Матьязова Н.С. Комил инсон тарбияси: маънавият ва маърифат уйғунлиги // Молодой ученый, 2017. № 16.2 (150.2). – С. 30-32.